



# BOSH XALQARO MUAN

XAL  
N

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**  
**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**  
**МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ**  
**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

***БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО***  
***БАҲОЛАШ ТАЖРИБАСИ: МУАММО, ЕЧИМЛАР***  
***ВА ИСТИҚБОЛЛАР***

*ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН*

***МАТЕРИАЛЛАРИ***

**2022 йил, 29 март**

**Илмий анжуманнинг дастурий қўмитаси**

- О. Х.Хамидов – Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис.  
О.С.Қаҳҳоров – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.  
Ў.У. Рашидов – молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо.  
Қ.Р.Тўхсонов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо.  
Ю.Ю.Азимов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.  
Н.О. Сафарова – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо.  
А.Р.Ҳамроев – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.  
Ю.А. Пўлотова – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб.

**Илмий анжуманнинг ташкилий қўмитаси**

- О.С.Қаҳҳоров – Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини.  
Қ.Р.Тўхсонов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини.  
Г.Т. Зарипов – ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо.  
Ю.Ю.Азимов – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо.  
Н.О. Сафарова – мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо.  
А.Р.Ҳамроев – бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо.  
Ф.М.Қосимов – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.  
Ғ.М.Сайфуллаев – бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо.  
Н.Б.Адизова – бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо.  
Р.А.Қўлдошев – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.  
Р.Х.Жумаев – бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо.

Тўплам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартдаги 101-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2022 йилда ҳалқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2022 йил 29 март куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида “Бошланғич таълимда ҳалқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар” мавзусидаги ҳалқаро илмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

**Масъул муҳаррир:**

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

**Такризчилар:**

Б.Р.Адизов, педагогика фанлари доктори, профессор  
Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

integratsiyalab tashkil etish, o'quvchilarni aqlan va jismonan yetuk, ma'naviy dunyoqarashi keng, o'zining sog'lom fikri bilan munosabat bildira oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalash imkoniyati keng.

Boshlang'ich maktab ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas. Hozirgi kunda asosini tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish anchadan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida qo'llanilgan. Bunda so'z faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan. Keyingi paytda maktab ta'limini integratsiyalash to'g'risida ko'p so'z yuritilmoqda. Olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun daslurni tuzish to'g'risida bosh qotirishyapti. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish harakatlari bo'lmoqda. Masalan, matematika va konstruksiyalash, tasviriy san'at va badiiy mehnat. Bu kurslarning samaradorligi to'g'risida xorijlik pedagoglarning ko'p yillik ishlari natijalari bo'yicha baholash mumkin. Zero, integratsiyalangan kurslar chet el maktablari uchun odatiy holga aylangan.

Kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, ingliz tili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan, ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi? Bu masala qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada? Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarini faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi - boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazardan va boshqalar. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlar bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, "qish", "sovuq", "bo'ron" kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tish metodikasiga ega bo'ladi. Umumiy ta'limning poydevorini qo'yadigan boshlang'ich ta'limdagi ko'p tushunchalar tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. O'qish darsligining deyarli ko'p mavzulari axloqiy tarbiyaga qaratilgan. Ona tili darsligida ham ko'p mashqlar axloqiy tarbiyaga qaratilgan. O'qish va ona tili darslari davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi.

Hozirgi kunda bir qator o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o'rnatish psixologik va metodik asos bo'lgan integratsiyalangan darslar bilimni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish muhim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar – integratsiyalash uchun fanlarning mazmuniy jihatdan birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali o'quvchilar bilan munozara qilish, ularni fantaziya qilishga o'rgatish, guruhlararo musobaqalarni tashkil etish, savol-javoblarni uyushtirish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad - o'quv jarayonida o'quvchilarni faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, integratsiyalashgan darslarni tashkil etish bir tomondan dastur talablarini o'zlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan o'quvchida fanlararo bog'liqlik haqida tasavvur uyg'otadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi.-T.: "Ilm ziyo", 2009.-64-98 betlar.

2. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim. 2004. 3-son. - 34-38 betlar.

3. Bikbaeva N., Yangiboeva E. 2-sinf matematika darsligi. -T.: "O'qituvchi", 2008. - 112 bet.

4. Sharipovna K. A. The role of learning activities in the design of teacher activities in the integration of primary school mother tongue lessons //Central Asian journal of literature, philosophy and culture. – 2021. – T. 2. – №. 10. – C. 111-114

5. Husenova A.Sh. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida fanlararo integratsiyaning o'rni. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi 3-son 2022. -382-384-betlar.

### **LOYIHAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI U.Tog'ayeva, BuxDU tayanch doktoranti**

*Ushbu maqolada loyihaviy ta'lim, uning kelib chiqishi va bugungi kundagi ahamiyati bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** metodika, loyiha, loyihalashtirish metodikasi, uslubiy maqsad, didaktik maqsad, muammo, tanqidiy fikrlash.

*В этой статье описывается проектное образование, его происхождение и актуальность сегодня*

**Ключевые слова:** методология, дизайн, методология проектирования, методологическая цель, дидактическая цель, проблема, критическое мышление.

*This article describes project education, its origins, and its relevance today*

**Keywords:** methodology, design, design methodology, methodological goal, didactic goal, problem, critical thinking.

Jahon miqyosida davlat va jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralayotgan ta'lim mazmunida til va tafakkur uyg'unligiga erishishning innovatsion texnologiyalari orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Yaponiya, Germaniya, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Kanada kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ilmiy markazlarida til ta'limining samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy masalalari hamda o'qitishning sifatini oshirish muammosi o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, "Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o'qitishni tubdan yaxshilash" muammosi BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalariga doir Bitimida ham dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini sifat jihatdan jadal rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish, soha o'zgarishlari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-kasbiy tarbiyalash tizimi komponentlari va tayanch kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga ko'ra to'g'ri, o'rinli va samarali foydalanish malaka va ko'nikmalarni singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analарimiz ruhida tarbiyalashda maktab ona tili kursining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir.

Loyihaviy ta'lim pedagogika fanida 300 yildan ortiq vaqt davomida qo'llanilib kelmoqda. Nemis pedagogi M. Knollning tadqiqotiga ko'ra, «loyiha» tushunchasining paydo bo'lishi XVI asrga taalluqli bo'lib, italiyalik me'morlar dastlab ishlatgan. Uni o'quv fani darajasiga chiqarish harakatida o'z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog'liq. XVIII asr oxirida muhandislik kasblari paydo

bo'lishi natijasida o'quv loyihasi dastlab Fransiya, so'ngra Germaniya, Avstriya, Shveysariyada, XIX asr o'rtalarida esa AQShdagi texnika va sanoat oliy maktablarida qo'llana boshlagan. "Loyiha" atamasi ijtimoiy fanlar sohasiga texnika sohasidan o'tgan bo'lib (lotincha-projectus- tarjimada oldinga tashlangan) – aniq qoidalarga muvofiq u yoki bu soha holatini qayta qurishning asosiy g'oyasini anglatadi.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirish – o'qituvchi tomonidan talabning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkillashtirishdan – ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir. Pedagogik jarayonni loyihalashda:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarni oldindan ko'ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi.

Loyihaviy ta'lim – ta'lim modeli bo'lib, unda o'qituvchi tomonidan loyihalash ko'rinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot)ga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil o'quv faoliyati tashkil etiladi.

Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish – o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellectual yoki modddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir. Loyiha asosida o'qitish o'quvchining mustaqil ishlashi, fikr yuritishi, o'zi o'zlashtirib olishini kafolatlaydi. Bu metod o'quv mahsulini olishda samarali bo'lib, o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishda keng tavsiya etiladi. Interfaollikni loyiha asosida tashkil etish hozirgi kunda eng aktual, yuqori samara beruvchi metod sifatida tan olinyapti. Dars jarayonida loyihalar ustida ishlash aniq sotsial ijtimoiy masalalar yechimiga qaratiladi. Loyiha asosida tashkil etilgan darslarda talabalar fikr almashadilar, izlanadilar, hamkorlikda yechimini topadilar. Loyiha asosidagi darslarning boshqa usullardan farqi shundaki, o'quvchilar axborotlarni izlab topib, qayta ishlab, umumlashtiradilar.

Loyihaviy tadbirlar natijasida talabalar ijodiy, mustaqil ravishda mustaqil ravishda, berilgan mavzu bo'yicha kerakli ma'lumotni tahlil qilish va tanlashda, mustaqil ravishda o'zlarini topishlari kerak.

Loyihada quyidagilar bo'lishi kerak:

- ijodiy ahamiyatli muammo, integrallashgan bilimlarni, tadqiqotlarni talab qiladigan vazifa;
- mo'ljallangan natijalarning amaliy, nazariy va kognitiv ahamiyati;
- talabalarning mustaqil, guruh yoki juftlik faoliyati;
- tarkibni tuzish (bosqichli natijalar bilan);
- faoliyat usullarini aniqlash.

Loyiha aniq belgilangan maqsadlarga ega bo'lishi kerak, bunga misol quyida keltirilgan.

Uslubiy va didaktik maqsadlar:

- talabalarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish: guruhda ishlash, o'z va birgalikdagi faoliyat natijalarini tahlil qilish qobiliyati;
- tanqidiy fikrlashni shakllantirish, ma'lumotlarga analitik qarashni rivojlantirish;
- tadqiqot faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish, tadqiqot natijalarini tizimga kiritish qobiliyati;
- mavzuga va ob'ektlararo aloqalarga chuqur qiziqishni shakllantirish;
- tafakkurni kengaytirish;
- ma'lumotnoma, tanqidiy adabiyotlar va tasviriy materiallardan foydalanish ko'nikmalarini o'zlashtirish.

Loyihada ishlashning muhim jihati bu ish bosqichlarini rejalashtirish va loyihani amalga oshirishdir.

Dars mashg'ulotlarini rang – barang zamonaviy texnik vositalar ishtirokida tashkil qila olgan o'qituvchi qisqa vaqtda o'quvchilarning egallagan bilimi, do'stlariga munosabati, muomala madaniyati, fikr doirasi, so'z boyligi, nutqiy salohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Ilg'or texnologiyaga asoslangan darslar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida teng, do'stona munosabat qaror topishiga sharoit yaratadi. O'quvchi darsda o'zini erkin his qiladi, mashg'ulotlarga qiziqishi, so'z san'ati bilan shug'ullanishga hamda ijodga rag'batini ortadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. A.Q.G'ulomov., M.Qodirov. Ona tili o'qitish metodikasi. T., «Universitet», 2001 yil, 29-bet

D.A.G'aybulloeva, BOSHLANG'ICH SINFLARDA TURLI FANLARNING INTEGRATSİYALASHUVI .....	147
X. A. Qulmamatova, BOSHLANG'ICH SINFLARNING TEXNOLOGIYA DARSLARIDA SXEMA VA CHIZMALARDAN FOYDALANISH METODLARI .....	149
D. U. Yo'ldashova, BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA FONETIK MASHQLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	151
A. Нисанбаева, А. Чиналиева, БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ УСУЛЛАРИ .....	152
I. A. Sultonova, TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	153
N.B.Adizova, F.Ibrohimova, OILADA BOLALARNI TARBIYALASH JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH USULLARI .....	155
N.B.Adizova, Sh. Nusratova, BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI MUSTAQIL O'QISHGA TAYYORLASH .....	157
М. Х. Эшонкулова, БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ЎҚИТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТРИШНИНГ АСОСИЙ ПОНДЕВОРИ –МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ .....	160
З. О. Дадаханова, БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ИНТЕНСИВ УСУЛЛАРИ ТАЖРИБАСИ .....	163
Джумаев Жасур . ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РОБОТОТЕХНИКИ ВО ВНЕУРОЧНОЙ РАБОТЕ .....	167
З. Т. Холматова, БОШЛАНГИЧ СИНFLARDA ГЕНДЕРЛИ ЁНДАШУВНИНГ ПЕДАГОГИК ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ .....	170
М. Э. Иноятова, Н. Т. Жалилова. ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН ДАРSLARDA АЛЛОМАЛАР ФАОЛИЯТИНИ ЎРГАНИШ .....	173
М.М.Murodova, N.B.Adizova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRASIYALASHGAN TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI .....	175
A. Sh. Qahhorova. O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASHDA XALQ O'ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	177
Б.Ў.Пардаев . ШАХС РИВОЖЛАНИШИДА ИЖТИМОЙЛАШТИРИШ АГЕНТ, ИНСТИТУТ, БОСҚИЧ ВА ОМИЛЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	179
Садуллоева М. Г. ПРОЕКТНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ТВОРЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ЛИЧНОСТИ РЕБѐНКА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ .....	182
Ҳайитов Ҳамза Аҳмадович. ХАЛҚ КУЛГИСИ АСОСИДА ЯРАТИЛГАН ЁЗМА АСАРЛАРДА САЖЪНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ .....	184
Сафаров Самандар. ПРИМЕНЕНИЕ КОМПЬЮТЕРА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ .....	185
R.X.Jumayev, M.Mizrobova. BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH .....	188
Ибрагимова М.С. ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ГОТОВНОСТИ УЧИТЕЛЯ К ОБУЧЕНИЮ РИТОРИКЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ .....	189
Пахратдинов С.Ю. БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИНИНГ КИЧИК МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИГА РИТОРИКАНИ ЎРГАТИШГА ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ .....	191
Barakhova Roza Kurbanalievna, Kambarova Aisha Orkhaevna, Taganmuratova Gulshoda Tuakmuratovna. FORMATION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN THE FAMILY AND THE PSYCHOLOGIST .....	194
Ю. А. Миртурсунова. ИНТЕГРАЦИЯ ЛИТЕРАТУРЫ И МУЗЫКАЛЬНЫХ ЖАНРОВ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ .....	195
Фазылова Н. С. ОБОГАЩЕНИЕ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ .....	198
Аманкулов Хусан Гулмуродович. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НАЧАЛЬНОГО КУРСА МАТЕМАТИКИ С МЕТОДИКОЙ ПРЕПОДАВАНИЯ .....	199
Kalyshbayeva Gulayim , Dzhumaev Mamanazar. SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS FOR THE FORMATION OF SPEECH SKILLS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS .....	202
А.А. Халиков. БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ НИЗОЛИ ВАЗИЯТЛАРГА НИСБАТАН МУНОСАБАТИНИ БЕЛГИЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАР .....	204
R.X.Jumayev. SADRIDDIN AYNII ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH .....	206